

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
<b>Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.</b>	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ .....	21
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....	38
<b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА .....	50
<b>Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПЛЕКС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	56
<b>Халтурдиев Айтмурат Маратович</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI .....	64
<b>Saatova Lolaxon Ergashevna</b>	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	71
<b>Pulatov Abdullo</b>	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
<b>Axmedov Zafarjon Zokirjon</b>	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ .....	80
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA .....	92
<b>Atamatov Abdusalil Salomovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR .....	97
<b>Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich</b>	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH .....	103
<b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	107
<b>Davitova Shaxzoda Doniyor qizi</b>	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY .....	112
<b>Kamilova Nargiza</b>	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....	115
<b>Sottarov Abdulvali Umirqulovich</b>	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	120
<b>Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI .....	130
<b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
<b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI .....	140
<b>Yangiboev Rustam Berdiyrovich</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi</b>	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	152
<b>Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	163
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b>	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
<b>Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI .....	174
<b>Safarova Muxabbat Radjabovna</b>	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI .....	178
<b>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI .....	186
<b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH .....	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILYI IMKONIYATLARI .....	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI .....	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR .....	231
<i>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI .....	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI .....	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH .....	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI .....	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI .....	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
<b>Mansurov Obid Zaynidinovich</b>	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI .....	296
<b>Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
<b>Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
<b>Norova Nozima Nabiyeвна</b>	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BRENД STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
<b>Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayeвich</b>	
HUDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
<b>Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	325
<b>Бобоев Л Кадрухжа Джураходжаевич</b>	
HUDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.....	331
<b>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</b>	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI .....	339
<b>Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li</b>	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
<b>Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli</b>	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
<b>Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беговот Шералиевич</b>	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
<b>Umarova Durdona Abdumannabovna</b>	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
<b>Aminova Naima Umar qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
<b>Davlatov Ulug'bek Baxodirovich</b>	
HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI .....	370
<b>Avliyaqulov Xudoyberdi</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	374
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI MOTIVATSİYALASHGA OID TEXNOLOGIYALAR.....	380
<b>Bekmurodov Navruz Ergashevich</b>	



FORECASTING AND PROMISING DIRECTIONS OF INNOVATIVE INDUSTRIAL AND INVESTMENT DEVELOPMENT IN THE KASHKADARYA REGION.....	393
<b>Sattorov Shohruh</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПЫТАТЕЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ НА ОСНОВЕ РАСШИРЕННОЙ РИСК-ОРИЕНТИРОВАННОЙ МОДЕЛИ С ВЕСОВЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ.....	400
<b>Загидуллина Карина Рафаиловна</b>	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	405
<b>Viktoriya Kan</b>	
HUDUDLARDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH.....	410
<b>Nizomov Maxmud Minvarovich</b>	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ SWOT-АНАЛИЗА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ .....	414
<b>Махмудов Суннатжон Абдужаббор ўғли</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI BOSHQARUVI STRATEGIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	419
<b>Ubaydullayev Muhammadjon Abdusamad o'g'li</b>	
TRANSFORMATSION YETAKCHILIK VA XODIMLARNING INNOVATSION XULQ-ATVORI: KORPORATIV TASHKILOTLARDA EMPIRIK TADQIQOT.....	423
<b>Alimov Bobirjon</b>	
EKSPORTBOP QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI QIYMAT ZANJIRIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	432
<b>Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li, G.M.Abdulxayeva</b>	
ELEKTRON SAVDODA YASHIRIN IQTISODIY FAOLIYATNI QISQARTIRISHDA MOLIVAVIY NAZORAT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH .....	437
<b>Iskandarova Munisa Hasan qizi</b>	



# ELEKTRON SAVDODA YASHIRIN IQTISODIY FAOLIYATNI QISQARTIRISHDA MOLIYAVIY NAZORAT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH

**Iskandarova Munisa Hasan qizi**

Toshkent xalqaro universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [munisaravshanova@mail.ru](mailto:munisaravshanova@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron savdo sohasida yuzaga kelayotgan yashirin iqtisodiy faoliyat ko'lamini qisqartirishda moliyaviy nazorat mexanizmlarining o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda elektron savdo platformalarida amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi, identifikatsiya darajasi va nazorat tizimlarining samaradorligi baholandi. Shuningdek, yashirin iqtisodiyotning asosiy ko'rinishlari — anonim tranzaksiyalar, soliqdan bo'yin tovlash, noqonuniy moliyaviy oqimlar va ularning iqtisodiyotga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot davomida tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi hamda xalqaro tajriba asosida elektron savdoda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'nalishlari aniqlab berildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, elektron savdo platformalarida foydalanuvchilarni majburiy identifikatsiya qilish, moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida monitoring qilish va bank hamda soliq tizimlarini integratsiyalash yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Maqolada elektron savdoda moliyaviy nazoratni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi hamda ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** yashirin iqtisodiyot, elektron savdo, moliyaviy nazorat, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy xavfsizlik, AML/CFT, identifikatsiya.

**Abstract.** This article provides a scientific analysis of the role and importance of financial control mechanisms in reducing the scale of shadow economic activity in the e-commerce sector under the conditions of the digital economy. The study evaluates the transparency of financial operations, the level of user identification, and the effectiveness of control systems on e-commerce platforms. It also examines the main forms of the shadow economy, including anonymous transactions, tax evasion, illegal financial flows, and their impact on the economy.

The research applies systemic, comparative, and statistical analysis methods. Based on international experience, key directions for strengthening financial control in e-commerce are identified. The results indicate that mandatory user identification, real-time monitoring of financial flows, and the integration of banking and tax systems are critical factors in reducing the scale of the shadow economy.

The article proposes scientific and practical recommendations for improving financial control in e-commerce and substantiates their applicability in the context of Uzbekistan.

**Keywords:** shadow economy, e-commerce, financial control, digital economy, financial security, AML/CFT, identification.

**Аннотация.** В данной статье проводится научный анализ роли и значения механизмов финансового контроля в сокращении масштабов теневой экономической деятельности в сфере электронной коммерции в условиях цифровой экономики. В исследовании оценены прозрачность финансовых операций, уровень идентификации пользователей и эффективность систем контроля на платформах электронной торговли. Также изучены основные формы теневой экономики — анонимные транзакции, уклонение от уплаты налогов, незаконные финансовые потоки и их влияние на экономику.

В ходе исследования использованы системный, сравнительный и статистический методы анализа, а также на основе международного опыта определены направления усиления финансового контроля в электронной коммерции. Результаты показали, что обязательная идентификация пользователей, мониторинг финансовых потоков в режиме реального времени и интеграция банковской и налоговой систем являются важными факторами снижения уровня теневой экономики.

В статье разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию финансового контроля в электронной коммерции и обоснованы возможности их применения в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** теневая экономика, электронная коммерция, финансовый контроль, цифровая экономика, финансовая безопасность, AML/CFT, идентификация.

## KIRISH

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida elektron savdo global iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Elektron savdo platformalari orqali amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalar hajmining ortishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi bilan birga, yashirin iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, anonim tranzaksiyalar, identifikatsiyasiz to'lovlar, transchegaraviy nazoratsiz moliyaviy oqimlar va soliqdan bo'yin tovlash holatlari elektron savdo muhitida keng tarqalmoqda [1].

Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, raqamli savdo platformalari orqali amalga oshirilayotgan noqonuniy moliyaviy operatsiyalar umumiy yashirin iqtisodiyotning sezilarli qismini tashkil etadi va bu ko'rsatkich ayrim davlatlarda 20–30 foizgacha yetadi [2]. Ushbu holat moliyaviy tizim barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida ham elektron savdo va raqamli to'lov tizimlari jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyot muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Prezidentning PF-6098-son Farmonida yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lsa, PF-99-son Farmonida ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar va moliyaviy nazorat mexanizmlarini keng joriy etish zarurligi ta'kidlangan [3,4].

Ilmiy adabiyotlarda yashirin iqtisodiyot va moliyaviy nazorat masalalari keng o'rganilgan bo'lsa-da, elektron savdo kontekstida ushbu muammoni kompleks yondashuv asosida tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, moliyaviy nazorat mexanizmlarining institutsional rivojlanishi va ularning elektron savdoda qo'llanish samaradorligi alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi [5].

Mazkur maqolaning maqsadi elektron savdoda yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirishda moliyaviy nazorat mexanizmlarining samaradorligini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashirin iqtisodiyot va uni qisqartirish mexanizmlari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu tushuncha ko'pincha rasmiy iqtisodiy faoliyatdan tashqarida amalga oshiriladigan, davlat nazoratidan chetda qoladigan moliyaviy operatsiyalar yig'indisi sifatida talqin etiladi. Xususan, Schneider tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashirin iqtisodiyot hajmini aniqlash usullari va uning iqtisodiyotga ta'siri chuqur tahlil qilingan bo'lib, u yashirin iqtisodiyot darajasi iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda yuqoriroq bo'lishini asoslab beradi [5].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yashirin iqtisodiyotning shakllari ham o'zgarib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar, xususan, OECD va UNCTAD tadqiqotlarida elektron savdo platformalarida yuzaga kelayotgan yangi xavf-xatarlar, jumladan, anonim tranzaksiyalar, identifikatsiyasiz to'lovlar va transchegaraviy moliyaviy oqimlarning nazoratdan chiqishi alohida ta'kidlangan [1,6]. Ushbu tadqiqotlarga ko'ra, raqamli savdo tizimlarida nazorat mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi yashirin iqtisodiy faoliyatning kengayishiga olib keladi.

Shuningdek, IMF va Jahon banki hisobotlarida elektron savdo muhitida noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni aniqlash va oldini olishda moliyaviy monitoring tizimlarining ahamiyati alohida qayd etilgan. Xususan, real vaqt rejimida moliyaviy oqimlarni kuzatish, foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish va xavfli tranzaksiyalarni avtomatik aniqlash tizimlari samarali vosita sifatida e'tirof etiladi [2,7]. Bu yondashuvlar moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy nazorat mexanizmlari iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy instrumentlaridan biri sifatida qaraladi. Xudoyberdiyev moliyaviy nazoratni davlat moliyaviy resurslarining shaffofligi va samaradorligini ta'minlovchi institutsional tizim sifatida talqin qiladi [8]. Shu bilan birga, Soliyev raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazorat tizimlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlab, ayniqsa elektron savdo platformalarida nazorat mexanizmlarining yetarli emasligini qayd etadi [9]. Abdullayev va Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda elektron savdo muhitida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun platformalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish, bank va soliq tizimlarini integratsiyalash hamda real vaqt rejimida monitoring tizimlarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan [10]. Ushbu yondashuvlar yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Xorijiy tadqiqotlarda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) analitikasi yordamida moliyaviy xavflarni aniqlash va boshqarish masalalari keng yoritilgan. Chen tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish va xavf reytingi asosida baholash tizimlari noqonuniy operatsiyalarni aniqlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ko'rsatib berilgan [11].

Shu bilan birga, xalqaro AML/CFT standartlari elektron savdo platformalarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu standartlar doirasida mijozlarni identifikatsiya qilish (KYC), tranzaksiyalarni monitoring qilish va shubhali operatsiyalarni aniqlash mexanizmlari muhim o'rin tutadi [7,12].



Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron savdo sharoitida yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish uchun moliyaviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Biroq mavjud tadqiqotlarda aynan elektron savdo kontekstida institutsional mexanizmlarni kompleks tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu sababli, mazkur maqolada ushbu muammo tizimli yondashuv asosida o'rganiladi va O'zbekiston sharoitida qo'llanishi mumkin bo'lgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi elektron savdoda yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash, uni qisqartirishda moliyaviy nazorat mexanizmlarining ahamiyatini o'rganish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston elektron savdo bozori va raqamli to'lov tizimlarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash darajasi mavjud bo'lsa-da, yashirin iqtisodiy faoliyatni to'liq nazorat qilish imkonini bermaydigan qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Avvalo, elektron savdo platformalarida foydalanuvchilarni majburiy identifikatsiya qilish mexanizmlarining yetarli darajada joriy etilmaganligi anonim tranzaksiyalar ulushining ortishiga olib kelmoqda, bu esa, o'z navbatida, pul yuvish va soliqdan bo'yin tovlash holatlarini kuchaytiradi [1,6]. Shu bilan birga, identifikatsiya tizimlarining fragmentar shaklda mavjudligi va yagona standart asosida ishlamasligi moliyaviy operatsiyalarni to'liq kuzatish imkoniyatini cheklaydi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, elektron savdo muhitida amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalarning ma'lum qismi davlat nazorat tizimlaridan chetda qolmoqda. Bu holat, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatida yaqqol namoyon bo'lib, ularning ayrim operatsiyalari soliq hisobotlarida aks ettirilmaydi. Natijada, elektron savdo orqali shakllanayotgan daromadlarning bir qismi yashirin iqtisodiyot tarkibiga kirib qolmoqda [2,7]. Bu esa davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga va iqtisodiy resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi.

Shuningdek, moliyaviy oqimlarni monitoring qilish tizimlarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi ham muhim muammo sifatida aniqlangan. Bank tizimi, soliq organlari va elektron savdo platformalari o'rtasida real vaqt rejimida ma'lumot almashinuvi to'liq yo'lga qo'yilmaganligi sababli moliyaviy operatsiyalar ustidan tezkor nazorat o'rnatish qiyinlashadi [7,10]. Bu esa noqonuniy moliyaviy oqimlarni aniqlash va oldini olish imkoniyatlarini pasaytiradi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, elektron savdo muhitida yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish uchun moliyaviy nazorat mexanizmlarini institutsional jihatdan takomillashtirish zarur. Xususan, foydalanuvchilarni majburiy identifikatsiya qilish tizimini joriy etish anonim tranzaksiyalarni keskin kamaytiradi va moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshiradi [1,2]. Shu bilan birga, moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida monitoring qilish tizimini joriy etish orqali shubhali operatsiyalarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati kengayadi [7,12].

Xorijiy tajribalar tahlili ham shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda elektron savdo platformalarida moliyaviy nazoratni ta'minlash uchun sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Ushbu texnologiyalar yordamida tranzaksiyalar xavf darajasi bo'yicha avtomatik tahlil qilinadi va shubhali operatsiyalar aniqlanadi [11]. Bu esa moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston sharoitida ham ushbu yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bank, soliq va elektron savdo platformalari o'rtasida yagona axborot tizimini shakllantirish, ma'lumotlar almashuvini avtomatlashtirish va moliyaviy nazorat jarayonlarini raqamlashtirish orqali yashirin iqtisodiy faoliyatni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mavjud qonunchilik hujjatlari elektron savdo faoliyatini tartibga solishga qaratilgan bo'lsa-da, moliyaviy nazorat mexanizmlarining zamonaviy talablar asosida yangilanishi zarur [3,4]. Xususan, elektron savdo platformalarida faoliyat yurituvchi subyektlar uchun yagona nazorat standartlarini joriy etish, shuningdek, AML/CFT talablarini kuchaytirish moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron savdoda yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish moliyaviy nazorat mexanizmlarini kompleks va tizimli ravishda rivojlantirishni talab etadi. Faqatgina alohida choralar emas, balki identifikatsiya, monitoring, integratsiya va raqamli texnologiyalarni o'z ichiga olgan yagona institutsional tizimni shakllantirish orqali ushbu muammoni samarali hal etish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, byudjet daromadlarini oshirish va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron savdo platformalarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, yashirin iqtisodiy faoliyatning yangi shakllari ham yuzaga kelmoqda. Xususan, anonim tranzaksiyalar, identifikatsiyasiz to'lovlar, transchegaraviy nazoratsiz moliyaviy oqimlar hamda soliqdan bo'yin tovlash holatlari elektron savdo muhitida moliyaviy xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda [1,2].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sharoitida elektron savdo sohasida moliyaviy nazorat tizimlari mavjud bo'lsa-da, ularning samaradorligi yetarli darajada emas. Ayniqsa, foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish tizimlarining to'liq joriy etilmaganligi, moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida monitoring qilish mexanizmlarining rivojlanmaganligi hamda bank, soliq va elektron platformalar o'rtasida ma'lumot almashinuvi tizimining integratsiyalashmaganligi asosiy muammolar sifatida aniqlangan [7,10].

Shu asosda tadqiqot davomida elektron savdoda yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga qaratilgan moliyaviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqildi. Jumladan, foydalanuvchilarni majburiy identifikatsiya qilish tizimini joriy etish, moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida monitoring qilish, bank va soliq tizimlari o'rtasida integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish hamda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanish orqali moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish mumkinligi asoslab berildi [11,12].

Shuningdek, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va uni xalqaro AML/CFT standartlariga moslashtirish elektron savdo platformalarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi [3,4]. Bu orqali nafaqat yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish, balki davlat byudjeti daromadlarini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron savdo muhitida yashirin iqtisodiy faoliyatni kamaytirish moliyaviy nazorat mexanizmlarini kompleks va tizimli ravishda rivojlantirishni talab etadi. Mazkur yo'nalishda ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar O'zbekiston sharoitida elektron savdo sohasini tartibga solish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD. Consumer Policy and E-commerce. – Paris: OECD Publishing, 2022.
2. IMF. Global Financial Stability Report. – Washington, DC: IMF, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-6098-son Farmon. – 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-99-son Farmon. – 2024.
5. Schneider F. Shadow Economy: Estimation Methods. – 2019.
6. UNCTAD. Digital Economy Report. – 2022.
7. World Bank. Digital Financial Services. – 2022.
8. FATF. International Standards on AML/CFT. – 2021.
9. Medina L., Schneider F. Shadow Economies Around the World. – 2018.
10. Abdullayev Sh., Karimov O. Elektron savdo va moliyaviy xavfsizlik. – 2023.
11. Chen L. Big Data Analytics for Financial Security. – 2021.
12. Soliev B. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy munosabatlar. – 2022.
13. Xudoyberdiyev A. Moliyaviy xavfsizlik asoslari. – 2021.
14. World Bank. AML/CFT in Digital Finance. – 2022.
15. OECD. Tax Challenges of the Digital Economy. – 2021.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)